

MUQIMIY LIRIKASI VA HAJVIYOTINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Meliqo'ziyeva Shaxzodaxon Dilshodjon qizi

Qo'qon shahar 1-son texnikumi ona tili adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili va adabiyot fanini o'qitish jarayonida XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida ijod qilgan Muhammad Aminxo'ja Muqimiy ijodini o'rganish masalalari yoritilgan. “Muqimiy lirikasi va hajviyoti. Sayohatnoma” mavzusini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish, o'quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va matn tahlili ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. adabiy ta'lim, Muqimiy ijodi, lirika, hajviyot, sayohatnoma, interfaol metod, kompetensiya, badiiy tahlil, innovatsion pedagogik texnologiya.

Bugungi ta'lim jarayonida asosiy vazifalardan biri o'quvchilarga tayyor bilim berish emas, balki ularni mustaqil fikrlaydigan, tahlil qila oladigan va o'z qarashlarini erkin ifoda eta oladigan shaxs sifatida shakllantirishdan iboratdir. Adabiyot fani inson ma'naviy olamini boyituvchi, milliy qadriyatlarni anglatib beruvchi muhim fanlardan biridir. Ayniqsa, mumtoz va yangi davr adabiyoti vakillari ijodini o'rganish o'quvchilarda tarixiy tafakkur, estetik did va ma'naviy immunitetni rivojlantiradi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida yashab ijod qilgan Muhammad Aminxo'ja Muqimiy o'zbek adabiyotida yangicha qarashlari, xalq hayotiga yaqinligi va ijtimoiy muammolarni badiiy ifodalashi bilan ajralib turadi. Muqimiy ijodida inson qalbidagi kechinmalarni ifodalovchi lirika,

jamiyatdagi illatlarni ochib beruvchi hajviyot va hayotiy kuzatishlarga boy “Sayohatnoma” asari alohida o‘rin egallaydi.[1]

Adabiyot ta’limida Muqimiy ijodining ahamiyati : Muqimiy ijodi o‘quvchilarda nafaqat adabiy bilimlarni, balki hayotiy xulosalar chiqarish qobiliyatini ham shakllantiradi.

Shoir lirikasida:

- inson ruhiy holati;
- muhabbat va dard;
- taqdir va hayot haqidagi falsafiy qarashlar;
- jamiyat va shaxs munosabati kabi ko‘plab masalalar yoritib berilgan.

Muqimiy hajviyotida esa:

- mansabparastlik;
- poraxo‘rlik;
- adolatsizlik;
- ma’naviy tanazzulkabi illatlar tanqid qilinadi.

Shu jihatdan shoir asarlari o‘quvchilarni ezgulik va adolatga undovchi tarbiyaviy vosita hisoblanadi.[2]

Darsning metodik tashkil etilishi

Mazkur dars sotuvchi-nazoratchi-kassir yo‘nalishi 25-3 guruh o‘quvchilari uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, 80 daqiqalik amaliy mashg‘ulot shaklida tashkil etildi.

Darsda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- “Aqliy hujum”;
- “Muallifini toping”;

- “Sirli konvertlar”;
- “Karta”;
- “Xotira charxi”;
- “Soyabon” metodlari.

Ushbu metodlarning asosiy maqsadi o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb qilish, ularning fikrlash tezligi va ijodiy yondashuvini rivojlantirishdan iborat.

Dars jarayonida interfaol metodlarning qo‘llanishi

“Sirli konvert” metodi

Mazkur metod takrorlash bosqichida qo‘llanilib, o‘quvchilarning avvalgi bilimlarini aniqlashga xizmat qildi.

O‘quvchilarga turli ijodkorlarning baytlari yozilgan kartochkalar tarqatildi. Ular:

1. Misralarni o‘qidi;
2. Mazmunini tahlil qildi;
3. Muallifini aniqladi;
4. Tegishli ijodkor nomi joylashtirilgan konvertga soldi.

Bu usul o‘quvchilarning xotirasi, tahliliy fikrlashi va adabiy bilimlarini mustahkamladi.

“Karta” metodining pedagogik imkoniyatlari

“Karta” metodi o‘quvchilarning tezkor fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam berdi.

Savol-javob jarayonida o‘quvchilar:

- mavzuga oid tushunchalarni esga oldilar;

- o‘zaro raqobat asosida bilimlarini namoyish etdilar;
- jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirdilar.[3]

Mazkur metod an‘anaviy so‘rovdan farqli ravishda barcha o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi.

Muqimiy lirikasini o‘rganish metodikasi

Muqimiy lirikasini o‘rganishda matn asosida tahlil usulidan foydalanildi.

Shoirning:

“Ohkim, afsus, emas har ishda rahbar toleim...”

misrasi orqali lirik qahramon ruhiyati ochib berildi.

O‘quvchilarga quyidagi savollar berildi:

- Lirik qahramon nima sababdan o‘z taqdiridan shikoyat qilmoqda?
- “Zangi g‘am” va “gardi kudurat” obrazlari qanday ma‘noni anglatadi?
- Shoirning ruhiy holati qanday tasvirlangan?

Bu savollar orqali o‘quvchilarda badiiy obrazlarni tahlil qilish malakasi shakllandi.[1]

Muqimiy hajviyotining tarbiyaviy ahamiyati

Shoirning “Saylov” hajviy asari orqali XIX asr oxiridagi ijtimoiy muhit yoritiladi.

Asarda mansab uchun kurash, poraxo‘rlik va xalq manfaatiga zid harakatlar hajv orqali fosh etiladi.

Muqimiy kulgi vositasidan foydalanib, jamiyatdagi kamchiliklarni ko‘rsatadi.

Bu esa o‘quvchilarda:

- halollik;

- mas'uliyat;
- adolat;
- jamiyatga befarq bo'lmalik

kabi fazilatlarni shakllantiradi.

“Sayohatnoma” janrini o‘rganish. “Sayohatnoma” o‘zbek adabiyotidagi muhim janrlardan biri bo‘lib, unda muallifning safar taassurotlari, hayot kuzatuvlari va ijtimoiy qarashlari aks etadi. Muqimiyning “Sayohatnoma”si oddiy sayohat tasviri emas, balki davr muammolarini badiiy tahlil qiluvchi asardir.

Asarda:

- joy nomlari;
- tabiat manzaralari;
- xalq turmushi;
- ijtimoiy muammolar

tasvirlangan.[2]

Guruhlar bilan ishlash samaradorligi

Guruhli topshiriqlar o‘quvchilarda hamkorlik kompetensiyasini rivojlantirdi.

1-guruh shoir obrazini tahlil qildi.

2-guruh amaldorlar obrazini o‘rgandi.

3-guruh tabiat va joy tasvirlarini izohladi.

Natijada o‘quvchilar asarga turli nuqtai nazardan yondashishni o‘rgandilar.

Kutilayotgan pedagogik natijalar

Dars yakunida o‘quvchilar:

- Muqimiy hayoti va ijodi haqida bilimga ega bo'ladilar;
- lirika va hajviyot xususiyatlarini ajrata oladilar;
- "Sayohatnoma"ning g'oyaviy mazmunini tushuntira oladilar;
- mustaqil fikr yurita oladilar;
- badiiy matn bilan ishlash ko'nikmasini egallaydilar.

Xulosa. Muqimiy ijodini interfaol metodlar asosida o'rganish o'quvchilarning adabiy bilimini oshirish bilan birga, ularning ma'naviy dunyoqarashini ham boyitadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida tashkil etilgan bunday darslar o'quvchini mashg'ulotning oddiy tinglovchisidan faol ishtirokchisiga aylantiradi. Muqimiy asarlaridagi insonparvarlik, adolat va haqiqat g'oyalari yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.[4]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 10-sinf Adabiyot darsligi.
2. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi.
3. Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar bo'yicha metodik qo'llanmalar.
4. O'zbek adabiyoti namunalari.